

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

MT 4 bosqich Sh Mamajonova

**“TO‘GARAKLAR FAOLIYATIDA O‘SMIR – YOSHLARNI BILISHGA
BO‘LGAN QIZIQISHLARINI TA‘MINLASH MASALALARI...”
MAVZUSIDAGI**

KURS ISHI

Ilmiy rahbar:

I.Sattarova

Andijon – 2015

MAVZU: TO'GARAKLAR FAOLIYATIDA O'SMIR – YOSHLARNI BILISHGA BO'LGAN QIZIQISHLARINI TA'MINLASH MASALALARI.

REJA.

Kirish.

- 1. To'garaklar faoliyatida o'smir-yoshlarni bilishga bo'lgan qiziqishlarini ta'minlashning zaruriyati**
- 2. To'garaklar faoliyatida o'smir-yoshlarni bilishga bo'lgan qiziqishlarini ta'minlashning ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlari**
- 3. Sinfdan tashqari ishlar orqali o'smir-yoshlarni bilishga bo'lgan qiziqishlarini ta'minlash va unga qo'yilgan pedagogik talablar**
- 4. Yoshlar tarbiyasida to'garaklar faoliyatining tizimli amalga oshirishning texnologik va metodik jihatlari**

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz mustaqillika erishgandan keyingi yillarda ta'limni islox qilish bo'yicha ko'pgina qaror va qonunlar qabul qilindi, ularda ularda to'garaglar faoliyati va ularda o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish vazifalari ham yetarlicha o'z ifodasini topmoqda. Hozirgi kunda yoshlarni to'garak ishlariga jalb qilish va kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini amalga oshirishda bir qancha muammolarni bartaraf etishimizga to'g'ri keladi. Bizning vazifamiz kelajagimiz bo'lgan o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga, ijtimoiy-iqtisodiy bilimga ega bo'lgan, bozor sharoitini biladigan har tomonlama tushunadigan, ma'lumotli yigit - qizlarni tayyorlash.

Bu ishlar asosan uch bosqichda olib boriladi:

1. Yoshlarga dastlabki kasb-hunar ko'nikma va malakalarini to'garak ishlari orqali, maktabda, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarida amalga oshirish;
2. To'garaklar yordamida maxsus mutaxassislik bo'yicha oliygohda o'qish jarayonida tajriba oshirish;
3. Olingan bilim ish joyida, amaliy mashg'ulotda, malaka oshirish jarayonida mustahkamlanishi.

Kurs ishning metodologik asosi. Bir qator tadqiqotchilar, pedagog va psixologlar dialektik-materialistik metodologiyaga tayangan holda o'qitish jarayonini dunyoqarashning shakllanishi (E.I.Monaszon, N.A.Menchinskaya va b.q.), pedagogik jarayonda tarixiy mantiqiy bog'liqlikning ahamiyati (F.F.Korolev, Z.I.Ravkin va b.q.), asosiy didaktik tushunchalarning har tomonlama metodologik tahlili (E.I.Monaszon, V.E.Gmurman va b.q.) nuqtai nazaridan qarab chiqdilar. Didaktikaning nazariy tadqiqiga L.V.Zaikov (so'z va ko'rgazmalilikning bog'liqligi, ta'limning rivojlantiruvchi tahsirini kuchaytirish), S.G.Sha'ovalenko (o'qitish metodlariga turlicha yondashuv), K.P.Yagodovskiy (tadqiqot metodlari) va b.q.lar o'zlarining samarali hissalarini qo'shdilar.

Kurs ishining maqsadi: to'garaklar faoliyatida o'smir-yoshlarning bilish

faoliyatini tashkil qilish rejasini ishlab chiqish.

Ongli ravishda to'garak ishlari orqali kasb tanlash uchun o'quvchilarning bir qator kasblarni yetarlicha bilishi, bilganda ham ularning o'ziga jalb qiladigan tomonlarini emas, balki qiyinchiliklarini ham yaxshi bilishi, o'zining shaxsiy sifatlariga ko'ra tanlangan kasbini muvaffaqiyatli egallay olishi va keyingi ish jarayonida o'z malakasini takomillashtirish talab qilinadi. Bunday ko'nikmalarni bevosita to'garak ishlari orqali shakllantirish, o'quvchilarning biror bir hinarni egallashlarida ko'rsatmalar berish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi vaqtga qadar to'garak ishlari orqali kasbga yo'naltirish ishlari yetarlicha saviyada olib borilmasligi, ularni kasb-hunar turlari bo'yicha aniq ma'lumotga ega emasligiga olib keladi. Maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan savol-javob qilinganda shu narsa aniqlandiki, ularning faqat 65% ommaviy kasblarni bilishi to'g'risida ta'kidlagan. O'quvchilarning faqat 25%i to'garaklarga jalb qilingan. Albatta, bu ma'lumotlar har davrda va har xil mintaqalarda ob'ektiv holda turlicha bo'lishi mumkin.

Bozor munosabatlari va uzluksiz ta'limga o'tish munosabati bilan umumta'lim maktabi o'quvchi-yoshlarini ongli ravishda to'garak ishlari orqali jamiyat uchun foydali va zarur bo'lgan muayyan mehnat faoliyatiga tayyorlashda yo'garaklar faoliyati yana ham katta rol o'ynaydi. O'quvchilarni to'garak ishlari orqali kasbga yo'naltirish ularning har biriga alohida-alohida yondoshishni talab etadi. Bunda shaxsning temperamenti, irodasi, diqqati, belgilangan maqsadga erishishda qat'iylik, tashabbuskorlik, uyushqoqlik, intizomlilik, topshirilgan ishni bajarishga ma'suliyat bilan munosabatda bo'lish kabi fazilatlarini e'tiborga olish zarur. Bundan tashqari, to'garak ishlari orqali kasbga yo'naltirish davomida kasbni tanlash sabablarini, kasbning ijtimoiy ahamiyatini, qiziqish va imkoniyatini, kasbga tayyorgarlik darajasini, oila an'alarini va ota-onalar, pedagoglar, o'rtoqlarning maslahatini hisobga olish lozim.

O'quvchilarda kasbga oid qiziqishlarning paydo bo'lishi va rivojlanishidagi muvaffaqiyat ko'p jihatdan maktabda, kollej va litseylarda to'garak ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yishga bog'liqdir. Ishchilar sulolasi an'alarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ommalashtirish va targ'ib qilish kerak. Turli kasb egalari bilan suhbatlar o'tkazish yo'li bilan o'quvchilar kasb turlari bilan batafsil tanishtirib boriladi.

Bizning maqsadimiz mustaqil davlatimizning har bir yosh avlodini barkamol va to'garaklar faoliyatida o'smir-yoshlarni bilish faoliyatini tashkil qilishga tayyorlashdan iboratdir. Buning uchun o'quvchilarni boshlang'ich sinflardan boshlab kasblar, ularning turlari, vazifalari to'g'risida ma'lumotlar berib borish, o'zlariga yoqqan kasbga qat'iy qiziqish hosil qilish uchun zaruriy ma'lumotlar bilan tanishtirilmog'i lozim.

1. To'garaklar faoliyatida o'smir-yoshlarni bilishga bo'lgan qiziqishlarini ta'minlashning zaruriyati

Bilish jarayoni - o'qitish jarayonining metodologik asosi. O'qitish jarayonining metodologik asosini ***bilish nazariyasi*** tashkil etadi. Bu nazariya bilimni ob'ektiv dunyoning inson ongidagi passiv tasviri, shunchaki akslanishi emas, balki uni faol jarayon sifatida qarab chiqish demakdir. Bilimda ob'ektiv dunyodagi hodisa, jarayonlar o'z aksini topgan bo'lib, bular sababiy va qonuniy o'zaro bog'langan bo'ladi. Bilish ob'ektiv dunyoning inson ongidagi in'ikosidir.

Bilish nazariyasining birligi to'g'risidagi qoidaga amal qilgan tadqiqotchilar shuni tasdiqlab berdilarki, ta'lim jarayoni bilish jarayonining o'ziga xos sharoitda sodir bo'ladigan turli-tuman faoliyatlar ko'rinishidir.

O'quv jarayonida yangilik yaratish, ixtiro qilish talab qilinmaydi, balki tayyor bilimlarni ijodiy o'zlashtirish yo'lga qo'yiladi. Ushbu jarayon zahirida olimlar tomonidan uzoq yillar davomida olib borilgan tadqiqotlar natijalarini tezkor bilish jarayoni yotadi. Bilimlarning juda ko'plab ko'rinishlari o'quvchilar tomonidan,

bevosita o'rganilmaydi, balki o'qituvchi yordamida tezkor bilish yo'llaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Haqiqatga yetishish o'ta murakkab dialektik jarayondir. Dialektikasiz bilishning o'zi, uning rivojlanishi bo'lmaydi. Bilishda jarayonlarning bog'liqligi, ya'ni ichki butunlik va ular elementlarining o'zaro bog'liqligi mavjud.

Lekin bilish dialektikasining mohiyati, eng avvalo, uning ichki qarama-qarshiligidadir. Dunyodagi barcha jarayonlar bilish shartlarida, ularning ichki harakatida, o'z-o'zining harakatida, barcha ziddiyatlarning o'zaro bog'liqligidadir. Shuningdek, bilish o'zgaruvchanlikda, rivojlanishda, uzluksizlikda, sakrovchan, doimo bir ko'rinishdan ikkinchi ko'rinishga o'tib turishda namoyon bo'ladi.

Bilish tafakkurning obektga doimiy to'xtovsiz yaqinlashuvidir. Tabiatning inson ongidagi inikosini «o'lik», «abstrakt», harakatsiz, qarshiliksiz bir narsa deb emas, balki doimiy rivojlanishdagi, doimiy qarama-qarshilikdagi va uni hal etishdagi jarayon deb bilish kerak.

Shuning uchun ham biz, yuqoridagi metodologik asosga tayanib, ilmiy haqiqatlarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish qanday kechayotganligini, o'quvchi o'zlashtirishninig qaysi bosqichida turganligini, bilish jarayonida ularning harakatidagi ziddiyatlar nimadan iboratligini aniqlashimiz zarur.

Psixologlar va didaktikashunoslar tomonidan isbotlanishicha, o'quvchi shaxsiy tajribasi va ilmiy bilimlar o'rtasidagi, bilish vazifalarini aniqlash zaruriyati bilan uni hal etish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarda jonli bilish jarayoni yotadi. Bunda o'quvchi butun imkoniyatlarni (intellektual tajribani) ishga solib, bu ziddiyatdan chiqib ketishga harakat qiladi.

Eng muhimi, bizning vazifamiz shu masalani hal etishda uchraydigan ziddiyatlarni izlab topish, aniqlash, so'ng shu qarama-qarshiliklarni hal etish imkoniyatlarini, yo'llarini, shartlarini ochib berishdan; o'quvchilarning faol bilish jarayonini tashkil etishga undovchi ichki intilish, ehtiyojni yuzaga keltiruvchi

qo'zg'atuvchi vositalarni izlab topishdan iborat. Xuddi shu qo'zg'atuvchi o'qitish jarayonini harakatga keltiruvchi kuch bo'lib maydonga chiqadi.

O'qitish jarayonini harakatlantiruvchi asosiy qarama-qarshiliklar doimiy murakkablashib, qiyinlashib borayotgan talablar bilan o'quvchilar imkoniyatlari (bilim darajasi, rivojlanganligi, motivlar, usullarni egallash darajasi) o'rtasidagi ziddiyatlardir. Bu qarama-qarshilik o'zini mazmun (bilim, ko'nikma)da, qo'zg'atuvchi usullar va operatsiyalar (bilish usullari) da namoyon etadi.

Bu qarama-qarshiliklar quyidagilardir:

1. O'quvchilarning oldingi bilimlari darajasi bilan yangi bilimlar o'rtasidagi;
2. Bilimlar bilan uni qo'llash o'rtasidagi;
3. Yangi qo'yilayotgan talablar bilan oldin o'quvchilarda mavjud bo'lgan bilish va o'qitishga munosabat o'rtasidagi;
4. Yangi bilish vazifalarini hal etish uchun ilgari surilayotgan metodlar bilan oldin egallangan eski bilish usullari, yo'llari o'rtasidagi ziddiyatlar.

Fan to'garaklari yo'nalishi, mazmuni, ish metodi, o'qish vaqti va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Ular o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish, o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi. To'garaklar o'qishni hayot bilan aloqasini kuchaytiradi, fanlararo bog'liqlikni rivojlantiradi. Fan to'garaklarida o'quvchilarning ishlari o'quv jarayonini faollashtiradi, o'qish sifatini oshirishga yordam beradi.

Ta'limning yordamchi shakllariga ekskursiyalar ham kiradi. Ular ommaviy, guruhli va kichiq guruhli bo'lishi mumkin. O'quv ekskursiyalari alohida fanlar hamda bir qancha fanlar bo'yicha ham rejalashtiriladi. Ekskursiyani muvaffaqiyatli o'tkazish uchun o'qituvchi unga puxta tayyorlanishi: obekt va yo'nalish bilan oldindan tanishib chiqishi, to'la rejani ishlab chiqishi, o'quvchilarni bo'lajak topshiriqlarni bajarishga jalb eta olishi kerak. Ekskursiya rejasida mavzu va maqsad, obekt, u bilan tanishish tartibi, o'quvchilar idrok etish faoliyatlarini tashkil etish, topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan vositalar va uskunalar, yakun yasash ko'rsatiladi. Ekskursiyani

o'tkazish metodikasi mavzu, didaktik maqsad, o'quvchilarning yoshi, ularning rivojlanishi hamda ekskursiya ob'ektiga bog'liq bo'ladi.

Maktab o'quv rejasi turli fakul'tativ va tanlovi bo'yicha kurslarni tashkil etishni ko'zda tutadi. Ular o'quvchilar, ularning ota-onalari istak va qiziqishlarini hisobga olish bilan ishlab chiqiladi. Amaliyotda fermerlik, iqtisod, elektro va radiotexnika, elektronika, polimerlar ximiyasi, astrofizika, psixologiya, etika, antik tarix, botanika ba'zi sohalari, ikkinchi chet tili, etnografiya, stenografiya, kutubxona ishi, rassomchilik, musiqa kabi kurslarni fakul'tativ sifatida o'rganiladi. Fakul'tativ va fanlarni ro'yxatini aniqlashda faqat o'quvchilar istaklari emas, balki ijtimoiy talablar va maktab imkoniyatidan kelib chiqiladi. Fakul'tativ va tanlovi bo'yicha mashg'ulotlar majburiy va umumiy o'rta ta'lim fanlari bilan uzviy bog'liqlikda o'tkazilishi kerak.

Maslahat (konsultatsiv-o'quv suhbatiga talablar ko'pincha o'quvchilarning ma'lum o'quv materiali yoki topshirig'i ustida mustaqil ishlashi sababli yuzaga keladi. Bunda ko'proq o'quvchi savol beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultatsiya o'quvchilarga o'quv materialini egallashda qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Konsultatsiya davomida o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini u yoki bu masalani to'g'ri tushunishga mustaqil ravishda, ular uchun qiyin topshiriqni tushunib oladigan qilib, o'rganilayotgan materialning mohiyatini ochishga o'rganadigan qilib yo'naltiradi.

2. To'garaklar faoliyatida o'smir-yoshlarni bilishga bo'lgan qiziqishlarini ta'minlashning ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlari

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyingi yillarda ta'limni isloh qilish bo'yicha ko'pgina qaror va qonunlar qabul qilindi, ularda o'quvchilarni to'garak ishlariga jalb qilish vazifalari ham yetarlicha o'z ifodasini topmoqda. Bunga Xalq ta'limi vazirligining 2002 yil 10 oktyabrdagi 153-sonli buyrug'i asosida o'quvchilarni to'garak ishlari orqali kasb - hunarga yo'naltirish tizimini takomillashtirishning yangi kontsepsiyasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Hozirgi kunda to'garaklar orqali kasb-hunarga yo'naltirishdan maqsad – o'sib kelayotgan yosh avlodni kasbni ongli ravishda tanlashga tayyorlashdir.

Insonning ilmga bo'lgan chanqoqligini qondiruvchi birinchi ziyo chashma bu umumta'lim maktabidir. Maktabda o'quvchi shaxs sifatida shakllana boshlaydi. Unda dastlabki kasbiy hissiyotlar yuzaga keladi. Bular mehnatsevarlik, mehnat qilish zarurligini tushunish va anglash, o'z ishini rejalashtira va nazorat qila bilish, ish o'rnini to'g'ri tashqil qilish, iqtisodiy - tejankorlik, sabr – toqatlilik, talabchanlik, topshiriqni bajarishning eng oqilona usuli (etti o'lchab, bir kes) tanlab ola bilish hamda vaqtni tejash va shu kabilardir.

Bolalarni to'garaklar olamiga asta – sekin olib borish, ularni shu olamda mo'ljal olishga o'rgatish zarur. O'qituvchi darslarda kuzatish u bilan suhbatlashish, bola faoliyati mahsulini tahlil qilish jarayonida uning ba'zi xususiyatlarini qobiliyat, qiziqish, moyilliklarni payqab oladi. Bu xislat va fazilatlarini shakllantirib boriladi. Bular to'garaklar orqali kasbni belgilashda asosiy omil bo'lishi mumkin. Bolaning muhim xislat va fazilatlarini barvaqt aniqlash esa keyingi xususiyatlariga qarab kasbni to'g'ri tanlash, uni muvoffaqiyatli ravishda o'zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini berishi mumkin.

To'garaklar faoliyatida o'smir-yoshlarni bilish faoliyatini tashkil qilish shakllantirishning asosiy maqsadi o'quvchi-yoshlarni hayot yo'lini to'g'ri belgilashlarida o'zining qobiliyat, qiziqish va moyilligini hamda ijtimoiy ehtiyojni

hisobga olgan holda kasb tanlashlarida ko'maklashishdan iboratdir. Bizning jamiyatimiz har bir shaxsning qobiliyatlari to'liq namoyon bo'ladigan, yuqori samara bilan ishlay oladigan faoliyat va shart-sharoitlar bilan band bo'lishiga katta e'tibor berilmoqda.

Jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga fan-texnika yutuqlarini iqtisodiy sohaga tadbiiq etish asosida erishish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va unda ko'rsatilganidek fan, ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro faol aloqasini ta'minlashni taqazo etadi.

Ilmiy texnik taraqqiyot natijalarini ishlab chiqarish soxasiga kirib borish ko'p jihatdan ta'lim saviyasiga, kadrlar salohiyatiga, ayniqsa, yoshlarga, ularning faolligiga, o'z kasblarini naqadar egallaganliklari darajasiga bog'liqdir. Hozirgi kunda to'garaklar faoliyati orqali yoshlarni kasb va hunarga yo'naltirishdan maqsad o'sib kelayotgan barkamol avlodni kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash.

Yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirish yoshlarning kasbni erkin va mustahkam tanlashlari uchun mustaqil zamin yaratuvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida qarash lozim. Bu shaxsning ma'naviy, aqliy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiyasi, ya'ni birga ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayoni uzviylikda amalga oshiriladi.

Kasb tanlashga yo'llash –yo'naltirish, ajrata bilish, belgilash xayotda to'g'ri yo'lni tanlash degan ma'noni bildiradi.

Kasb tanlashga yo'llash tushunchasi – o'quvchi yoshlarni ongli to'g'ri va erkin kasb tanlashga, kasblar, hunarlarning mehnat yo'lini to'g'ri belgilashga qaratilgan muayyan pedagogik ishni ifoda etadi.

Kasb so'zining ma'nosi – Insonlarning hunari, faoliyat turi va hayot kechirishlari uchun manba xizmatini o'taydigan mashg'ulotni bildiradi.

To'garak ishlari orqali kasbga yo'naltirish ishlarini mohiyati : Yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashda uni har tomonlama va barkamol rivojlantirishning shart-sharoitlarini yaratishdir.

To'garak ishlari orqali kasbga yo'naltirish – O'quvchining o'z ehtiyojini oqilona cheklaydigan shaxs sifatida kamolotga yetishining pedagogik jarayoni bo'lib, pedagogik tashqi ijtimoiy bog'liq bo'lgan tafakkuri va hatti – harakatlarini ongli ravishda o'z-o'zini boshqaruvchisidir. Ushbu vositalar kasb va hunarga yo'naltirish mazmunining asosini tashkil etadi. Kasb va to'garak ishlari orqali kasbga yo'naltirishning nazariy shart – sharoitlari deganda, kasb va hunarga yo'naltirish faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan turli xil qarashlar majmuasi, g'oyalari va tasavvurlar yig'indisi ko'riladi. Bu yoshlarning shaxsiy qiziqishlari, layoqati va qobiliyatlariga mos keladigan, jamiyat uchun zarur kasblarga yo'llashdir.

Muammoning muhimligi, yoshlarni to'garak ishlari orqali kasbga yo'naltirishga oid bir qancha amaliy masalalarni shoshilinch ravishda hal qilishning zarurligi hozirgi vaqtda ko'plab mutaxassislar: pedagoglar, psixologlar, shiforkorlar, iqtisodchilar, sotsiologlar va g'oyat xilma – xil sohalarida ishlovchi amaliyotchi xodimlarning e'tiborini o'ziga jalb etadi. Bu borada ko'plab mutaxassislarning ishtirok etishi va ish olib borishi muammoni to'g'ri va kompleks tarzda hal etish uchun zamin va sharoitlar yaratib beradi, albatta. Kasb va kasbga yunaltirish ishlari quyidagi asosiy yunalishlarini uz ichiga oladi:

Kasbiy axborot o'quvchi-yoshlarni zamonaviy ishlab chiqarish turlari va kasblari, xo'jalik majmuasining malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari kasb bozorining kelajakdagi rivojlanishi, kasblarni o'zlashtirishning shakllari va sharoitlari mehnat faoliyati jarayonida kasbiy malakaviy o'sish va o'z -o'zini takomillashtirish imkoniyatlari bilan tanishtirish;

Kasbiy maslahat Yoshlarning pedagogik psixologik xususiyatlari va imkoniyatlari xamda jamiyatning ehtiyojlarini hisobga olgan holda kasbiy yo'lini

tanlash bo'yicha ongli ravishda qaror qabul qilish maqsadida kasbiy o'zligini aniqlashda yordam ko'rsatish;

Kasbiy tanlash- pedagogik – psixologik psixofiziologik, tibbiy tashxis asosida o'zining psixologik - fiziologik xususiyatlarga ko'proq mos bo'lgan turli kasbiy yo'nalishlar to'g'risida tavsiyalar berish:

Kasbiy saralash- insonning ma'lum kasbga tegishli me'yoriy talablariga mos ravishda kasbiy loyqlik darajasini aniqlash.

Mehnat va kasb-hunar ta'limida o'quvchilarni kasb va hunarga yo'naltirishning quyidagi usullarda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

- O'quvchilarni kasblar bilan tanishtirish.
- Kasblar, mehnat yutuqlari talqin etilgan asarlarni o'qishni tavsiya etish:
- Har bir kasb haqida maxsus darslar o'tish:
- Ishlab chiqarish korxonalari, firma, fan, maorif, madaniyat san'at muassasalariga sayohatlar tashkil etish.
- Mehnat ilg'orlari bilan, ular erishgan yutuqlari haqida suhbatlar o'tkazish:
- Mehnat ta'limi yo'nalishi bo'yicha – mul'timedialar ko'rsatish:
- O'quvchilarni turli xil to'garaklarga jalb etish:
- Kasblar o'yinini tashkil etish
- Yangi kasb va mutaxassisliklar, fan texnika taraqqiyoti ishlab chiqarish texnologiyalari bilan muntazam tanishtirib berish.
- To'garak ishlari orqali kasbga yo'naltirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:
 - 1.O'quvchilarni to'garak ishlari orqali kasb tanlashga yo'naltirishning asosiy yosh bosqichlari mazmuni:
 - 1.1.Maktabgacha ta'lim yoshidagi - I-bosqich
 - 1.2. Boshlangich kichik yoshdagi (1-4 sinflar) – II – bosqich
 - 1.3.O'rta yoshdagi (5-7 sinflar) - III - bosqich
 - 1.4.Katta yoshdagi (8-9 sinflar) – IV – bosqich

2. O'quvchilar kasbiy tayyorgarligini aniqlash mezonlari (besh ballik) ko'rsatkich va o'lchovlari.

Birinchi bosqich – Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda (katta gurux) mehnat bilan band bo'ladigan insonlarga, ularning mashg'ulotlariga, shuningdek qo'llaridan keladigan faoliyat turlari bo'yicha dastlabki mehnat ko'nikmalarini ijobiy, xisssiy ta'sirchan shakllantirish:

Ikkinchi bosqich – Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni bilishga oid va o'yin ko'rinishdagi ijtimoiy foydali mehnat faoliyatini amalga tadbii qilish orqali, mehnatga hurmat, mehnat kasb turlari, yo'nalishlari bilan tanishtirib borishini hamda ommaviy kasblarga bo'lgan qiziqishini shakllantirish.

Uchinchi bosqich – O'quvchilarni to'garak ishlari orqali kasbga yo'naltirish mazmuni ulardagi qiziqish, qobiliyat, layoqat va shaxs sifatida jamiyatdagi o'z o'rnini topishdagi hamda ma'naviy- moddiy qadriyatning izlanuvchan – sinchkov ko'rinishlarini shakllantirish:

To'rtinchi bosqich – O'quvchilarda kasbiy o'zlikni anglashni shakllantirish davri ya'ni o'quvchilarni anii bir kasbni tanlashning shaxssiy ma'noga egalligini tushunib yetishi, jamiyat oldidagi burchi javobgarlik xislatlarini shakllantirish. Shu sababdan ham mutaxassislarning har biri to'la anii to'garak ishlari orqali kasbga yo'naltirish sohasidagi o'z faoliyatida o'zlariga ma'lum bo'lgan metodlarga, muammoga yondoshuv usullariga hamda idrok qilish uslubi va shu kabilarga tayanadi hamda to'garak ishlari orqali kasbga yo'naltirish metodologiyasini ishlab chiqish, to'garak ishlari orqali kasbga yo'naltirish sohasidagi bundan buyon muvaffaqiyatli ish olib borishning muhim shartidir.

Hozirgi fan-texnika va ijtimoiy taraqqiiyot sharoitida o'quvchi-yoshlarni jamiyat barpo etishda faol qatnashishga tayyorlash lozim bo'lgan umumta'lim maktabining o'rnini har qachongidan ko'ra o'sdi. Shu munosabat bilan o'quvchilarga ilm-fan asoslarining mustahkam bilimlarini singdirish, ularda yuksak ongliilikni tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatni shakllantirish, yosh avlodni turmushga va

mehnatga, ijtimoiy zarur kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash ta'lim va tarbiyaning hamma bosqichlarida hozirgi maktabning vazifalaridandir.

Pedagoglarning oldida turgan muhim vazifalar quyidagilar:

- o'quvchilarda aniq bo'lgan qiziqishlarini yanada takomillashtirish;
- uni to'garak ishlari orqali kasb tanlash darajasiga yetkazish;
- ko'p qirrali qiziqishga ega bo'lgan o'quvchilarda o'ziga ko'proq yoqqan sohani, to'garakni tanlashga amaliy yordam berish;
- o'quvchilarda mehnat qiluvchi kishilarga nisbatan hurmatni tarbiyalab borish;
- o'quvchilarning o'ziga xos qiziqishlarini e'tiborga olgan holda ularni sekin-asta jamiyat ijtimoiy mehnatiga jalb qilib borish;
- kasbiy ma'lumotlarni yetarlicha berib borish;
- inson mehnati bilan yaratilgan moddiy boyliklarni har tomonlama tejash xislatlarini tarbiyalash;
- o'quvchilarning o'zi qiziqadigan mehnat ta'limi yo'nalishiga jalb qilish va egallangan iqtisodiy bilimlarni amalda qo'llashlariga erishish;
- o'quvchilarda mehnat va to'garak ishlari orqali kasb tanlash darslariga qiziqish uyg'otish va uni oshirishda hal qiluvchi ta'sirni yuksak mahorat bilan amalga oshirish. Bu jarayon to'g'ri tashkil etilganda shaxsning bo'lg'usi kasbiy faoliyat sube'kti sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Hozirgi vaqtda ijtimoiy va ilmiy texnikaviy taraqqiyot sharoitida maktab o'quvchilarini kasb va to'garak ishlari orqali kasbga yo'naltirishning muhimligi ancha oshdi.

O'quvchilarni to'g'ri va erkin kasb tanlashga yo'naltirish bugungi kunning dolzarb vazifalardan biridir. To'garak ishlari orqali kasb tanlash insonning kelajagini hayot tarzini belgilashda katta ahamiyatga ega. Har bir shaxs kasbni o'z qiziqishi, qobiliyati nuqtai nazaridan tanlaydi.

Kasbni to'g'ri tanlash – inson turmushida muhim qadamdir, o'quvchi - yoshlarni butun hayotidagi muvaffaqiyati, ko'p jihatdan kasbning qanchalik to'g'ri tanlanishiga bog'liq.

Kasb tanlashda o'quvchilarga bir qator omillar ta'sir etadi.

Qiziqish – bu voqelikdagi predmetlar va hodisalarning bilish yo'nalishini belgilaydigan, biror narsaga berilish, qoniqish tuyg'usi orqali uyg'onadigan faoliyati tushuniladi.

Qobiliyat – Qaysi bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga ta'lluqli bo'lgan va bilimlar, malakalarni egallashning tezkorligini yengilligini izohlab beradigan xususiyatdir.

Idrok – Mazkur muddatda sezgi organlarining yoki bir butun xodisalarning inson ongida aks etishidir.

Xarakter – xatti harakatlarning sifat jihatlarining o'ziga xosligini, mustahkamligini ko'rsatib turadigan, maxsus munosabatlarni paydo bo'lish jarayonida o'zining izini qoldiradigan xususiyatlari majmuasidir.

Tafakkur - bilish, anglashning yuqori shakli bo'lib o'zida ob'yektiv dunyodagi xodisalar bilan narsalar o'rtasidagi munosabatlarni namoyon etishdir.

Bilish - dunyo haqidagi yangi bilimlar hisoblanadigan sub'ekt va ob'ektning o'zaro ta'sirini, voqelikning ruhiyatida qayta ta'sir etilishi hamda aks ettirish jarayonidir.

Erk - o'z oldiga maqsadlarni qo'yish va qabul qilish bilan ularni hal etish, amalga oshirish yo'lida ichki va tashqi to'sqinliklarni yengib o'tishdir. Hozirda o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashda pedagogik-psixologik, umumtexnik va kasb ta'limi mutaxassislari olib borayotgan togarak ishlar salmoqli o'ringa ega. Darhaqiqat, o'quvchi yoshlarning kasbiy bilimlarini va ko'nikmalarini shakllantirish, ularga to'g'ri yo'nalish berish kasb hunarga yo'naltiruvchi mutaxassislar, pedagog-psixolog tomonidan boshqarilib kelinmoqda. Quyida pedagogik-psixologik va umumkasbiy tayyorgarligiga to'xtalib o'tmoqchimiz. Jumladan:

Birinchidan -o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltiruvchi va pedagog-psixologlarni hamda umumtexnik va kasbiy ta'lim mutaxassislarni malakasini va

saviyasini oshirib borsak, ularga qayta tayyorlov, o'quv seminarlar tashkil qilib amaliy yordam berib, ularning moddiy ehtiyojlarini qondirilishi;

Ikkinchidan—o'quvchilarni kasb-hunarga qiziqishlarini, moyilliklarini kuchaytirish maqsadida har xil kasb hunar novatorlari bilan davra suhbatlari, baxs-munozaralar, hunarmandlar maydoniga sayohatdan foydalanganda ham mahorat bilan foydalanishi;

Uchinchidan - o'quvchilarni kasb - hunarga yo'naltirishda mahalla va ota-onalarning roli juda kattadir. Buning uchun sinf rahbarlari bilan ota-onalar hamkorlikda har oyda bir marta “Kasbiy maslahatlar kuni” ni tashkil etib, ular bilan turli kasb-hunarlariga tayyorlashda muammo va yechimlar davra suhbatlarini o'tkazish.

To'rtinchidan – bir necha yillar davomida halol mehnat bilan elga tanilgan xalq hunarmandlari va mehnat faxriylari bilan “Mehnat, mehnatning tagi rohat”, “Mehnat-baxt keltiruvchi omil”, “Kasb-u kamol xusn-u jamol” kabi mavzularda uchrashuvlarni tashkil etish.

O'quvchi 9-sinfga borganidan yakuniy psixolog-pedagog va kasbiy tashxisidan o'tkazilib, uning «Tashxis xaritasi» asosida aniqlangan qiziqishi, moyillik va layoqadlar tizimi tahlil etilib, o'quvchining eng so'nggi kasbiy yo'nalishi aniqlanadi va umumta'lim maktabida tashkil etilgan tavsiyanomalar berish bo'yicha hududiy komissiya qaroriga asosan o'quvchiga akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlari yo'naltiruvchi tavsiyanoma beriladi. Maktabda tashkil etilgan hududiy komissiyaning raisi maktab direktorii hisoblanadi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda maktab, kasb-hunar kollejlari, mahalla fuqarolari yig'inlarining o'zaro hamjihatligi juda katta ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinflarda maktab ma'muriyati bilan birgalikda noan'anaviy sayohat darslarini tashkil etib o'quvchilarni har xil sohaviy kollej, korxona, faoliyati, yo'nalishi va hayoti bilan tanishtirishi, u yerda ilg'or ishchilar bilan har-xil mavzularda uchrashuvlar o'tkazishlari lozim.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi psixolog va fan o'qituvchilari uzviy muloqotda ish olib borishlari talabga muvofiqdir. Masalan: mehnat ta'limi darsida o'quvchi o'zi qiziqadigan yoki layoqati bor kasbini to'la namoyon eta oladi, hamda u dars davomida «Duradgorlik», «Pazandachilik va oshpazlik», «Tikuvchilik va bichuvchilik» shuningdek, matematika darsidan hisobchi, ona tili va odobnoma darsida «tarbiyachi-muallim pedagog» kasbiga moyilligi borligini ko'ramiz. Ayni vaqtda shu dars muallimi sinf rahbari o'quvchiga kasb madaniyati bilan birga tashxis berib borishi kerak.

Maktab ota-onalar yig'ilishi kasb-hunar xodimlar bilan birgalikda olib borishlari maqsadga muvofiq. Chunki, o'quvchi ota-onasi hamkorligida kasblar haqida axborot oladi va uni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Oiladagi o'zaro hamkorlik to'la holda kasbni tanlash imkoniyatini yaratib bersagina shunda o'quvchida kasb-hunarga moyilligi paydo bo'ladi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish uzviyligi mamlakatimizdagi yangi ta'lim tizimini isloh etishda o'z samarasini beradi. Shu bilan birga biz kelajak avlodni hayotda o'z o'rnini topishga, vatanimizning ravnaqini yanada oshirishga hissa qo'shgan bo'lamiz.

3. Sinfdan tashqari ishlar orqali o'smir-yoshlarni bilishga bo'lgan qiziqishlarini ta'minlash va unga qo'yilgan pedagogik talablar

Ko'pincha mustaqil hamdo'stlik mamlakatlari hamda Respublikamiz olimlari o'tkazgan ilmiy – tadqiqotlarida bolajonlarning rayiga, hoxish – istagiga qarab, ularning intilishini uch bosqichda tajriba – sinov ishlarini umumlashtirib tahlil qilmoqdalar. Diagnostik suhbatlar – yakka tartibda yoki jamoa tarzda o'tkazilishi mumkin. Psixolog olim K.M.Gurevich 3-4 yoshli bolalarda motivlarning birlamchi tobeligi va dastlabki irodaviy harakatning paydo bo'lishini tatbiq etib, bolaga o'yinchoqni olishdan – oldin o'zi yoqtirmagan ishni bajarish topshirig'ini bergan.

Olingan ma'lumotlardan quyidagilar ma'lum bo'ldi: a) – maktabgacha yosh davrida ezgu orzular yo'lida harakat qilish imkoniyati tug'iladi; b) – ushbu orzularning bevosita bog'liq sabablari bevosita sabablarga qaraganda ertaroq paydo bo'ladi; v) – bevosita idrok qilinadigan narsalarga aloqador xohishni bajarishga qaraganda, narsaning o'ziga aloqador xohishni bajarishni muayyan muddatga kechiktirish osonroq. Xulosa qilib buning zamirida bolaning muloyimligi, niyati, orzusi, kasbga qiziqishi, xohish – istagi va tilagining mazmuni hamda xususiyatidagi o'zgarishlar yotadi. Maktab o'quvchilarining tahminan 25-30% foizida tanlangan kasbga nisbatan kasbga barqaror qiziqishlar boshlang'ich kichik yoshlaridayoq shakllanar ekan.

O'qituvchining vazifasi: - o'quvchilarning qiziqishlarini mumkin qadar oldinroq aniqlashda va davlat, hokimiyat, mahalla, oila talab – ehtiyojlariga muvofiq shu qiziqishlarni rivojlantirishda, inson shaxsini har tomonlama uyg'un barkamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

O'quvchini mehnat qilishga o'rgatish, nafaqat mehnatni sevishga u bilan shunday uyg'unlashishiga ko'niktirish kerakki, mehnat uning vujudiga singib ketsin. Ularni kasb hunarga yo'naltirish, orqali biror kasb egasi bo'lishida, o'quvchilar mehnatisiz biror – bir narsaga erisha olmasliklarini tushunib yetsinlari kerak.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida kasb tanlashga yo'llash va mehnat ta'limidan dars beradigan o'qituvchilar yuqori natijalarga, dars samaradorligini erishishi uchun albatta quyidagilarga e'tiborni qaratish kerak.

- zamonaviy ilmiy - texnikaviy taraqqiyotning va ma'naviy-moddiy qadriyatlarning mohiyatini chuqur tushuna bilish;
- pedagogik texnologiyani, innovatsiya asl mohiyati va uslublarini tushina bilishi, qo'llay olishi;
- o'quvchilarni mustaqil kasb hunar o'rganishga, erkin kasb tanlashga sharoit yaratish;
- pedagogik texnologiyalardan foydalanar ekan, o'zi ham yangi yaratuvchi

yangi xilma-xil (“Kasb darsi”, “Aqliy hujum”, “Zinama-zina”) uslublarni o’ylab topishi, amalda qo’llashi;

- an’anaviy darslar orqali o’qituvchilarning yakka tartibda (individual) ishlashga erishishi;

- test topshiriqlarni o’quvchi faoliyati darajalariga mos holda tuzish bo’yicha ko’nikmalarga ega bo’lishi shart.

O’qituvchi uslubchilarimiz uchun bugungi kun talabi mana shulardan iborat. Xalqimizda ilmu - hunar ulug’lanib kelgan. “Agar inson biror kasbni mukammal egallasa, mehnat unga huzur bag’ishlaydi, baxt keltiradi”- degan edi Andre Maruo.

Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasida tarbiyaviy tadbirlarni takomillashtirish zaruriyati, alohida ta’kidlangan: siyosiy tuzumning o’zgarganligi, yangicha iqtisodiy munosabatlarning shakllanib borishi, tarbiyaviy ishni yaxshilashda davr talabiga javob beradigan yangicha tamoyillar, g’oyalar, ish uslubiyotlarini ishlab chiqish hamda o’qituvchining ijodkorlik faoliyatini qaytadan qurmoq lozimdir.

Tarbiyachining navbatdagi vazifasi bolalar jamoasini tashkil qilish, tarbiyalash va jipslashtirish borasidagi nazariy bilimlarni o’zlashtirib, ilg’or tajribalarga suyanib o’quvchilarni tarbiyaviy jarayonda o’rtoqlik-do’stlik, o’zaro hamkorlik, hamjihatlik, o’z-o’zini tarbiyalash va boshqarish kabi jamoatchilik sifatlarini tarbiyalash mahoratini o’zlashtirishdan iborat.

Ular:

- sinfning boshlang’ich jamoasini tarbiyalash va ularda o’zaro munosabat aloqalarini yaratish;

- o’quvchilar kundalik faoliyatlarining hamma qirralarida jamoaga jipslashtirish;

- shaxsiy manfaatdan jamoa manfaatini yuqori qo’yishga o’rgatish;

- jamoada bir-biriga mehr-oqibatli, muruvvat va sahiylik, do’stona hamkorlik mavjud bo’lsa, u katta tarbiyaviy kuchga aylanadi.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari jamoalari tashkil qilishda o'qituvchidai turli-tuman usul va vositalardan mahorat bilan foydalanish talab qilinadi:

1. O'qituvchi jamoa a'zolarini yangi sharoitga (maktabning I sinfidan boshlab) moslashuv davrida ularga ishonch, xurmat, xushmuomalalik, talablarni to'g'ri qo'ya bilish shu bilan birga o'quvchini tushunish va eshita bilish mahoratiga ega bulish talab etiladi;

2. O'quvchilar jamoasidagi yetaklovchi kuch tayanch o'zagini tanlash;

3. Jamoa a'zolarining har birining kuchiga, qobiliyatiga qarab topshiriqlar berish;

4. Jamoada yangi an'ana, qonun-qoidalarni dastlabki kurtagini yaratish va unga amal qilish;

5. Jamoa istiqbolini davr talabi bilan moslashgan holda belgilash talab qilinadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning tarbiyaviy ta'siri ko'p darajada o'quv jarayonini tashkil etish saviyasiga hamda o'quvchilar jamoasininig xilma -xil ishlarni qanday yo'lga qo'yishlariga bog'liqdir. Sinfdan tashqari faoliyat majburiy dastur bilan chegaralanmaydi, balki yoshlar har xil o'quvchilarni ixtiyoriy ravishda birlashtiradi. Ularning tashabbusi asosida ishlarni amalga oshiradi, fanga qiziqtiradi, ularni xalqning madaniy hayoti muhitiga olib keladi. Sinfdan tashqari ishlar shaxsdagi ijtimoiy faollik, ijtimoiy ong hamda axloqiy odatlarni tarkib toptirishning eng muhim omilidir.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugun yoshlarimiz uchun davlatimiz tomonidan keng imkoniyatlar yaratilgan ekan, bu imkoniyatlardan o'z vaqtida foydalangan holda to'garaklar faoliyati orqali o'quvchi-qizlarni kasb-hunar tanlashlariga ko'maklashish maqsadida maktablarda faoliyat yuritayotgan to'garak ishlari hamda "O'quvchilar ijodiyot markazlari" bilan hamkorlikdagi ishlarni takomillashtirish zarur. Jumladan, yurtimizda ayollarga va uning manfaatlariga ustuvor vazifa sifatida qaralayotgani qizlarga ko'rsatilayotgan beqiyos e'tibor bugungi kunda o'zining yuksak samarasini bermoqda.

Shuningdek, maktablarda faoliyat yuritayotgan to'garaklar faoliyatini, mehnat ta'limi darslarini hamda xotin-qizlar qo'mitasi, sog'liqni saqlash bo'limlari, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish va barkamol avlod markazlari vakillari bilan hamkorlikda o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini takomillashtirish zarur. Chunki, maktablarda faoliyat yuritayotgan kasbiy to'garaklar ishlarining natijaviylik va samaradorligi sust, o'z ijodlari bilan viloyat, respublika bosqichlarida ishtirok etayotgan o'quvchi-yoshlar barmoq bilan sanarli. Ushbu maqsadda, yuqorida zikr etilgan tashkilot vakillari bilan hamkorlikdagi ishlarni kuchaytirish orqali turli yo'nalishlar bo'yicha ijod qilayotgan o'quvchi-yoshlar ijodini rivojlantirish ishlari dolzarb vazifalardan biridir.

Bugungi kun talablaridan kelib chiqib, o'quvchi-yoshlarni nafaqat ilm olishga, balki kelajakda ularning butun hayoti davomida asqotadigan kasb-hunarni egallashlariga ham alohida e'tiborimizni qaratmog'imiz kerak. Jumladan, xalqimizda shunday ajoyib naql bor: "Hunarli inson-xor bo'lmas!", darhaqiqat bu maqol zahirida olam-olam ma'no bor, chunki qaysi bir hunarli insonlarga razm solmaylik, hunarlari orqasidan farovon yashab, xalq orasida obro'-e'tibor qozonib, hattoki chet elliklarda ham qiziqish uyg'otmoqda.

Zamonamiz talablaridan kelib chiqqan holda, bugungi kunda o'quvchi-qizlarni munosib kasb-hunar tanlashi va kelajakda jamiyatda munosib o'ringa ega bo'lishi

uchun maktablarda o'z kasbining mohir ustalari bo'lgan, el-yurt orasida obro'-e'tibor qozongan hunarmand va tadbirkor ayollar bilan uchrashuvlar o'tkazish, ular ijodlari bo'yicha ko'rgazmalar tashkil etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi., Tosh., 2014 y
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi "Qonun"i., Tosh., 1997 y.
3. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"., Tosh., 1997
4. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori., Tosh., 1997 y.
5. Karimov I.A. O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li., Tosh., "O'zbekiston"., 1992 y.
6. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi., Tosh., "Sharq"., 1999 y.
7. Karimov I.A. Milliy mafkura haqida., Tosh., 2000 y.
8. Karimov I.A. Sog'lom avlod tarbiyasi – barchamizning muqaddas insoniy burchimiz., Tafakkur jurnali., 2 – son., 2000 y.
9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch., Tosh., "Ma'naviyat", 2008.
10. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri., Tosh., 1993 y.
11. Abu Rayxon Beruniy. Ruhiyat va ta'lim – tarbiya haqida., Tosh., 1992 y.
12. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq., Tosh., "O'qituvchi"., 1992
13. Sodiqxo'jaeva N. G'oziev Ye. Farzand kamoli., Tosh., "O'zbekiston"., 1989 y
14. Studentlarga o'quvchilarga kasb tanlashga yo'llash ishlarini o'rgatish. N.Shodiyev Toshkent «O'qituvchi» 1987 yil.
15. K.Davlatov, V.Chichkov. "O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash" Toshkent "O'qituvchi" 1978 yil.